

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

(dastlabki ma'lumotlar)


Toshkent viloyati bo'yicha joriy davrda 9 351,4 mldr. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 60,1% i yoki 5 623,4 mldr. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korhona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 39,9 % i yoki 3 728,0 mldr. so`m miqdorida moliyalashtirildi.



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan investitsiyalar miqdori 2477,7 mldr. so`mni yoki umumiy hajmga nisbatan 26,5 % ulushga, o`tgan yilga nisbatan esa 124,9% ga o'sish kuzatilgan bo'lsa, markazlashmagan investitsiyalar miqdori 6873,7 mldr. so`mni yoki umumiy hajmga nisbatan 73,5 % ulushga, o`tgan yilga nisbatan esa 123,4% ga o'sish kuzatildi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalar



Markazlashmagan investitsiyalarni moliyalashtirish manbaalari bo'yicha tahlil qilinganda, asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxona va tashkilotlar mablag`lari va mahalliy mablag'lar ulushi salmoqli bo`ldi – 2734,4 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 29,2% ulushini, ni tashkil etdi. Aholi mablag`lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,6 %i yoki 993,4 mlrd.so`m o`zlashtirildi.


Joriy davrda to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan o`zlashtirilgan investitsiyalar hajmi jadal o`sib 1299,0 mlrd.so`m, jami investitsiyadagi ulushi 13,9% ni tashkil etdi va 2017 yil yanvar-dekabr davridagiga nisbatan 596,8 foizga o'sish kuzatildi.



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 1846,8 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,7% ulushga ega bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 107,7% ni tashkil etdi), to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1299,0 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,9% ulushga ega bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 596,8% ni tashkil etdi), Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 1131,1 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,1% ulushga ega bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 161,6% ni tashkil etdi), Respublika byudjeti 340,8 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,6 % ulushga ega bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 97,9% ni tashkil etdi), Davlat maqsadli jamg`armalari 539,5 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,8 % ulushga ega bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 295,2% ni tashkil etdi) va Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi hisobidan esa 5,2 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 0,1% ulushga ega bo`lib, o`tgan yilga nisbatan 133,3% ni tashkil etdi) asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.


### 2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbaalari bo'yicha ulushi.

**Markazlashgan investitsiyalar**



- Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag`lari
- Byudjet mablag`lari
- Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari
- Davlat maqsadli fond mablag`lari
- Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi mablag`lari

**Markazlashmagan investitsiyalar**



- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag`lari
- Korxonalarining o'z mablag`lari
- To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar
- Aholi mablag`lari
- Boshqa qarz mablag`lari




## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foizda</i>	<i>Yakunga nisbatan, foizda</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>9351,4</b>	<b>123,8</b>	<b>100,0</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>2477,7</b>	<b>124,9</b>	<b>26,5</b>
byudjet mablag'lari	340,8	97,9	3,6
davlat maqsadli fond mablag'lari	539,6	295,2	5,8
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	1131,1	161,6	12,1
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	461,0	61,6	4,9
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	5,2	133,3	0,1
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>6873,7</b>	<b>123,4</b>	<b>73,5</b>
korxonalarining o'z mablag'lari	2734,4	100,8	29,2
aholi mablag'lari	993,5	107,5	10,6
to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	1299,0	596,8	13,9
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1819,3	108,1	19,5
Boshqa qarz mablag'lari	27,5	87,8	0,3

Toshkent viloyatida 2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkich Olmaliq shaharda – 1817,8 mlrd. so'm (umumiylajmaga nisbatan ulushi -19,4 foiz ), Chirchiq shaharda – 1137,8 mlrd. so'm (umumiylajmaga nisbatan ulushi -12,1 foiz), Zangiota tumanida – 667,6 mlrd. so'm (umumiylajmaga nisbatan ulushi -7,1 foiz), Qibray tumanida – 579,6 mlrd. so'm (umumiylajmaga nisbatan ulushi -6,2 foiz) kuzatildi.

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori.(Mlrd.so'mda).**



**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori.(Foizda).**




Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan o'sishi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkich Ohangaron shaharda – 728,3 foizni, Yangiyo'l shaharda – 153,1 foizni, Bekobod shaharda – 144,1 foizni, Olmaliq shaharda – 136,9 foizni, Chinoz tumanida – 219,7 foizni, Toshkent tumanida – 168,1 foizni, O'rtaçhirchiq tumanida – 181,7 foizni, Quyichirchiq tumanida – 154,5 foizni tashkil etdi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalar

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni aholi jon boshiga to'g'ri kelgan miqdori (Ming.so'mda).**



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar hajmining hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Olmaliq shaharda – 14168,0 ming so'm, Nurafshon shaharda – 13030,4 ming so'm, Ohangaron shaharda – 10046,5 ming so'm, Chirchiq shaharda – 7331,0 ming so'm, Angren shaharda – 5322,3 ming so'm, Bekobod shaharda – 4205,3 ming so'm, Zangiota tumanida - 3441,1 ming so'm, Qibray tumanida - 2950,9 ming so'm, O'rtachirchiq tumanida - 2697,1 ming so'mga to'g'ri keldi.



2018 yil  
yanvar -  
dekabr

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi.

	Jami. mlrd. so'm	Umumiy hajmga nisbatan. foizda	Davlat	Umumiy hajmga nisbatan. foizda	Nodav- lat	Umumiy hajmga nisbatan. foizda
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>9 351,4</b>	<b>100,0</b>	<b>1 139,1</b>	<b>100,0</b>	<b>8 212,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan % da</i>						
qurilish-montaj ishlari	4 358,7	46,6	914,4	80,3	3 444,4	41,9
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlar	4 580,0	49,0	96,0	8,4	4 484,0	54,6
boshqa xarajatlar	412,7	4,4	128,8	11,3	283,9	3,5

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining 2018 yil yanvar-dekabr oylarida mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlarga 4 580,0 mlrd.so'm yo'naltirilib umumiy hajmga nisbatan ulushi 49% ni tashkil qildi va eng yuqori korsatkich bo'ldi. Qurilish-montaj ishlariiga 4358,7 mlrd.so'm yo'naltirildi, umumiy hajmga nisbatan 46,6 foizni tashkil etdi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini mulkchilik shakliga ko'ra davlat ulushi 1139,1 mlrd.so'mni tashkil etib umumiy hajmga nisbatan ulushi 12,2 foiz bo'ldi. Nodavlat ulushi esa 8212,3 mlrd.so'mni tashkil etib umumiy hajmga nisbatan ulushi 87,8 foiz bo'ldi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (umumiylajmga nisbatan % hisobida)

(mlrd.so'm)

	<i>yanvar-dekabr</i>			
	<i>2017 yil</i>	<i>umumiylajmga nisbatan % da</i>	<i>2018 yil</i>	<i>umumiylajmga nisbatan % da</i>
		<i>nisbatan % da</i>		<i>nisbatan % da</i>
<b>Jami:</b>	<b>5 584,0</b>	<b>100,0</b>	<b>9 351,4</b>	<b>100,0</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	381,3	6,8	521,4	5,6
tog'-kon sanoati	1 120,2	20,1	1 428,9	15,3
qayta ishslash sanoati	1 726,3	30,9	2 845,7	30,4
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	217,3	3,9	257,4	2,8
suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish	75,4	1,4	132,6	1,4
qurilish	60,9	1,1	113,6	1,2
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	145,1	2,6	140,1	1,5
tashish va saqlash	289,0	5,2	312,8	3,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	29,6	0,5	37,5	0,4
aloqa va axborotlashtirish	64,9	1,2	59,5	0,6
moliya va sug'urta faoliyati	28,9	0,5	45,2	0,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq ishlar	40,4	0,7	44,3	0,5
malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat	55,0	1,0	162,6	1,7
ma'muriy va qo'shimcha xizmatlar	59,0	1,1	66,4	0,7
davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta'minot	138,5	2,5	297,0	3,2
ta'lim	71,4	1,3	263,7	2,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	76,2	1,4	456,2	4,9
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	26,1	0,5	294,0	3,1
uy-joy qurilishi	965,1	17,3	17,6	0,2
boshqa faoliyat turlari	13,4	0,2	1 855,1	19,8



2018 yil  
yanvar -  
dekabr

## Asosiy kapitalga investitsiyalar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatida - 2 845,7 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 30,4 %), shundan metallurgiya sanoati - 636,9 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 6,8 %), to'qimachilik mahsulotlari - 627,2 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 6,7 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishda o'zlashtirilgan investitsiyalar - 337,3 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 3,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari - 242,9 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 2,6 %), tog'-kon sanoatida - 1 428,9 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 15,3 %), shundan metal rudalarini qazib olishda - 1 392,7 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 14,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 521,4 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 5,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 456,2 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 4,9 %), tashish va saqlash - 312,8 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 3,3 %), san'at, kongil ochish va dam olish - 294,0 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 3,1 %), ta'lim - 263,7 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 2,8 %), va boshqa faoliyat turlari - 1 855,1 mlrd.so'mlik (jami investitsiyalar hajmida ulushi - 19,8 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.



2018 yil  
yanvar -  
dekabr

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



**Investitsiya va qurilish**

**statistikasi bo'limi boshlig'i**

**K.A.Utalov.**

**Telefon: 230-86-70, 230-86-71.**